



Murod RAXMATOV,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, t.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

THE VIEWS OF USMONKHODJA POLATKHODJAYEV AND THE JADIDIST MOVEMENT IN BUKHARA

Annotation

This article discusses the views of Usmonkhodja Pulatkhodjayev and the Jadid movement in Bukhara based on scientific foundations.

Key words: Osman Khoja, party, idea, new Bukhara, revolution, army, Soviet, government, independence, archive, expedition, emigrant, press.

ВЗГЛЯДЫ УСМОНХОДЖА ПОЛАТХОДЖАЕВА И ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В БУХАРЕ

Аннотация

В статье на научной основе рассматриваются взгляды Усмонходжи Пулатходжаева и движение джадидов в Бухаре.

Ключевые слова: Осман Ходжа, партия, идея, новая Бухара, революция, армия, Совет, правительство, независимость, архив, экспедиция, эмигрант, пресса.

USMONXO'JA PO'LATXO'JAYEV QARASHLARI HAMDA BUXORODAGI JADIDCHILIK HARAKATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning qarashlari hamda Buxorodagi jadidchilik harakati ilmiy asoslar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Usmon Xo'ja, partiya, g'oya, yangi Buxoro, inqilob, armiya, sovet, hukumat, mustaqillik, arxiv, ekspeditsiya, muhojir, matbuot.

Kirish. Buxorodagi jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, atqili davlat va jamoat arbobi Usmon Xo'ja (Usmon Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev; 1878 - 1968) tariximizda chuqur iz qoldirgan siymolardan biridir.

Usmon Xo'ja 1878-yil Buxoro (ayrim manbalarda o'sh) shahrida tug'ilgan bo'lib, uning otasi buxorolik savdogar qori Po'latxo'ja, onasi esa o'shlik Fotima oyim edi. U dastlabki tahsilni Buxorodagi madrasada oldi va bu yerda ilk jadid maktablaridan birini ochdi. 1908-yilda do'sti Homidxo'ja Mehriy bilan Turkiyaga borib, Istanbulda tahsil oldi. U Istanbulda Qrimdagi jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy (1850-1914), yosh turklar partiyasi: "ittihod taraqqiyy"ning rahbarlari anvar posho (1881-1922) va boshqalar bilan uchrashdi. Istanbulda uning ukasi Otaulla Xo'jayev (Ota Xo'ja, Otaulla Po'latovich Xo'jayev, Otaxo'ja Po'latxo'jayev; 1880-1937) ham tahsil olgan. 1912-yil boshlarida Usmon Xo'ja Buxoroga qaytgach, jadid maktablaridan birini qayta tashkil qildi. "Tarbiyai atfol" (1908-yilda tuzilgan) maxfiy tashkilotining faol a'zolaridan biri. u jadid maktablarini moddiy jihatdan ta'minlab turgan[1].

Professorlar Q.Rajabov va Sh.Hayitovning "Usmon Xo'ja" risolasida yozishlaricha, "Usmon Xo'ja Turkiyaga ilm olish maqsadida birinchilardan bo'lib safar qilgan ilg'or fikrli yoshlardan edi. U Turkiya safaridan qaytgach, 1912-yilda yana 30 nafar buxorolik yoshlarni Istanbulga tahsil olish uchun yubordi. Xullas, 1909-1914 yillarda Usmon Xo'janing tug'ishgan ukasi Otaulla Xo'jayev hamda Mazhar Maxsum, Burhon Maxsum, Abdurauf Fitrat, Muqimbek va boshqalar ham Turkiyada o'qib qaytdilar"[2].

Rossiya imperiyasining yangi Buxoro (Kogon)dagi xufiyasi Belman tomonidan yo'llangan maxfiy maktub (1912-yil 24-fevral)da ko'rsatilishicha, "Usmon Xo'ja Istanbuldan ko'plab siyosiy risolalar olib kelgan. U turkchilik va

islomchilik g'oyalarini targ'ib qilish bilan shug'ullangan, yashirin siyosiy tashkilot hayotida faol qatnashgan"[3].

Usmon Xo'ja Turkiyadan qaytgach, Buxorodagi taraqqiyparvarlik harakatining yetakchilaridan biriga aylandi. Buxoroda uning tashabbusi va boshchiligidagi yangi usuldagi maktablar ochildi. Usmon Xo'ja tomonidan o'zining ota hovlisida[4] tashkil qilingan maktab ayniqsa shuhrat qozondi. Bu maktablarda Usmon Xo'janing ukasi Otaulla Xo'jayev va amakivachchasi Fayzulla Xo'jayev dastlabki tahsilni olishgan.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, bu maktabda ta'lim berish holatini nazorat qilish uchun yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahridan kelgan Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agentligi xodimlari saboqxonada partalar hamda stol-stullar qo'yilganligi, muallim oldida yer yuzining tasviri tushirilgan globus mavjudligi, darslar turli ko'rgazmali qurollar asosida o'tayotganligi, sinfxona devorlarida Buxoro amirligi va Rossiya davlatining turli xaritalari osilganligini ko'rishadi. Bu haqda siyosiy agentlik raisi o'rinbosari Shulga tomonidan yozilgan maxsus ma'lumotnomada so'z boradi[5].

Usmon Xo'janing otasi Po'lat Xo'ja tomonidan XIX asr 60-yillarida Buxoroda qurilgan hashamatli uy hozir ham mavjud. Hovli o'z paytida Buxoroning tarixiy Govkushon guzarida, Govkushon va G'oziyon madrasalari atrofida qurilgan. O'z paytida u "hovli poyon" nomi bilan mashhur bo'lgan. Hovli ayni paytda Buxoro shahridagi Hamid Olimjon mahallasidagi Xo'ja gulrez ko'chasining 13-uyida joylashgan.

Buxoro davlat universiteti professori, yirik tarixchi olim Sulaymon Inoyatov (u Otaulla Xo'jayevning nevarasi hisoblanadi)ning yozishiga qaraganda, bu hovlini 1921-yilda Usmon Xo'ja tark etib, avval sharqiy Buxoroga, so'ngra Afg'onistonga maxsus xizmat safariga jo'nab ketganida 42 yoshda, uning ukasi Otaulla Xo'jayev 1937-yil qamoqqa olinganda 57 yoshda bo'lgan. Sovet rejimi tomonidan hovli

egalari qatag'on qilingach, u davlat tomonidan musodara qilingan hamda binoda turli idoralar joylashtirilgan. Uzoq yillar davomida Buxoro viloyati sudi unga o'mashgan. Hovlining podvalida sudlanuvchi mahbuslar saqlangan. Hovli ro'parasida Buxoro amirligi qozikaloni sadr ziyo (Sharifjon Maxdum)ning muhtasham hovlisi jo'yashgan bo'lib, u ham bugungi kunda saqlanib qolgan.

Tahlil va natijalar. Usmon Xo'janing Istanbulda yashayotgan o'g'li Temur Xo'ja o'g'li 2019-yil iyun va dekabr oylarida buxoroliklar bilan shu hovlida joylashgan "hovli poyon" mehmonxonasida uchrashganida mazkur tarixiy binoda Buxoro jadidlari muzeyini ochish taklifini o'rta qashlaydi. Bu taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo'llab-quvvatlanib 2023-2024 yillarda bu hovli davlat tasarrufiga olinib, ayni paytda bu yerda muzey va kutubxona ochish uchun qayta ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Usmon Xo'ja va uning ukasi Otaulla Xo'jayev, amakivachchasi Fayzulla Xo'jayev yosh buxoroliklar partiyasining yirik namoyandalari edi. Usmon Xo'ja 1917-yilda uch marta partiya MK tarkibiga kiritildi va firqaning xazinachisi bo'ldi[6]. Turkiston o'lka xalq komissarlari soveti raisi Fyodor Kolesovning Buxoroga bosqinidan so'ng, 1918-yil martda Usmon Xo'ja ham sovet Turkistoniga muhojirlikka jo'nab ketishga majbur bo'ldi. 1918-yil aprelda u Toshkentda yosh buxoroliklarning so'l eserlar guruhini tuzdi. 1920-yil fevralda u inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston markaziy byurosining a'zosi qilib saylandi.

Usmon Xo'ja BXSР tuzilgach, moliya noziri (1920), davlat nazorati noziri (1921), BXSР markaziy ijroiya qo'mitasining birinchi raisi (1921-yil avgust-1922-yil boshlari) kabi mas'ul lavozimlarda ishladi. Usmon Xo'ja va BXSР hukumatining ko'pgina rahbarlari Buxoroni o'z milliy armiyasi, milliy hukumati bo'lgan haqiqiy ma'nodagi mustaqil respublikaga aylantirmoqchi edilar. Mustaqil respublika mavjudligining birinchi sharti yaxshi qurollangan milliy qo'shinni tuzish zarurligi edi. Usmon Xo'ja Buxoro xalq sovet respublikasidan sovet rossiyasining qizil askarlari olib ketilishi, Buxoroning haqiqiy mustaqilligi uchun izchil kurashdi. BXSР markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Usmon Xo'ja Buxoro xalq sovet respublikasining favqulodda vakili sifatida sharqiy Buxoroda xizmat safarida yurgan davri - 1921-yil 9-dekabrda o'z yordamchilari: BXSР harbiy ishlarni nozirining muovini Ali Rizobek, termiz garnizoni qo'mondoni Hasanbek, shuningdek, Doniyolbek yordamida dushanbe garnizonidagi qizil askarlarni qurolsizlantirdi. Dushanbe garnizonining boshlig'i Morozenko, voenkomb Muxin va RSFSRning bosh konsuli Nagorniyni qamoqqa oldi[7].

Ibrohimbekning ruxsati bilan Anvar poshoning yordamchilari Hoji Somiy va Usmon afandi bir guruh askarlar bilan Usmon Xo'jaga ko'makka yetib keladi. Shaharni qamal qilayotgan bxsр milliy kuchlarining rahbari ibrohimbekka maxsus vakil orqali maktub yuborib, "biz bosqinchilarga qarshi kurashga kirishdik, kelinglar, barchamiz bir jonu bir tan bo'lib, jang qilamiz!", - deb uni o'z saflariga qo'shilish uchun da'vat qildi[8]. Anvar posho boshchiligida Buxoroning mustaqil milliy armiyasini tuzishga harakat qildi. Afsuski, Ibrohimbek BXSР MIK raisi Usmon Xo'janing bunday samimiy da'vatiga ishonmaganligi, Ibrohimbek bilan Anvar posho o'rtasidagi turli ixtiloflar, shuningdek, Usmon Xo'ja bilan anvar poshoni sharqiy Buxoroda bevosita uchrasha olmaganligi[9] natijasida Usmon Xo'janing bu dadil va qaltis rejalari amalga oshmay qoldi.

Turkistondagi sovet qo'mondonligi 1920-yil oktabr oyining oxirlaridayoq sharqiy Buxoroni bosib olish uchun maxsus harbiy ekspeditsiya jo'natishni rejalashtirgan edi[10]. 9-noyabrda 1-armiya qo'mondoni G.V.Zinovevning buyrug'i bilan Buxoro hududidagi barcha sovet harbiy bo'linmalari va qal'alardagi garnizonlar Buxoro gruppaga qo'shinlari tarkibiga

kiritildi. Qizil armiyaning yaqin oradagi vazifasi qilib hisor vodiysida turgan Said Olimxonni qo'lga olish va sharqiy Buxoroda qurol kuchi bilan sovet hokimiyatini o'rnatish belgilandi. Ekspeditsiyaning harbiy harakatlari asosan Hisorda o'tishi mo'ljallanganligi uchun Turkiston fronti qo'mondonligi uni Hisor harbiy ekspeditsiya otryadi deb nomlaydi. Turkiston fronti qo'mondonligining 1920-yil 27-noyabrda buyrug'i asosida Hisor ekspeditsiya otryadini tuzish boshlandi. U 1-Turkiston diviziyasi tarkibidagi 3-brigada, 16-otliqlar polki, 5 va 6-otliqlar polki va maxsus tog'lik otliq batareyasi hamda Rossiya markazidan yuborilgan yangi harbiy qismlar asosida tashkil qilindi[11].

1921-yil 14-fevralda ertalab Hisor harbiy ekspeditsiya otryadi Boysundan yo'lga chiqdi. Aynan ushbu kundan boshlab harbiy ekspeditsiyaning yurishi boshlanib, sharqiy Buxoroni bosib olishga kirishdi. Qizil askarlar amir sarbozlari, mahalliy aholidan shoshilinch tuzilgan ko'ngillilar va boshqa milliy kuchlarning jiddiy qarshiligiga duch keldi. Buxoro respublikasining hukumati 15-22-fevral kunlarini Buxoro fronti zarbdor haftaligi deb e'lon qildi. Bu kunlarda Y.A.Melkumov qo'mondonligidagi 1-turkiston kavaleriya brigadasi jangchilari Bandixon darasini egallab, qizil askarlarga Surxondaryo vohasi uchun yo'l ochishdi[12].

Qurol-yarog' jihatidan miqdor va sifat ustunligiga ega bo'lgan qizil askarlar bilan bo'lgan shiddatli janglarda Buxorodagi istiqolchilar (amir sarbozlari va ko'ngilli yigitlar) dastlab mag'lubiyatga uchrashadi. 1921-yil 15-fevralda qizil askarlar Denovni bosib olishdi. tez orada istiqolchilar qo'lidan Yurchi, Sariosiyo va Sarjo'y ham tortib olindi. hujum qilib kelayotgan qizil askarlar Regarda (hozirgi Mirzo Tursunzoda shahrida) shiddatli qarshilikka duch keldilar, lekin bu shahar va so'ngra Qoratog' ham ular tomonidan egallandi. Xususan, 1921-yil 20-fevraldan boshlab Hisorga kiraverishda shafqsiz janglar qizib ketdi[13].

1921-yil 25-fevralda Dushanbe shahriga Hisor ekspeditsiya harbiy otryadining shtabi kelib o'rnamashgan. Ekspeditsiyaning harbiy ta'minoti asosan Qarshidan yetkazib turilgan. 2-martda bu yerga RSFSRning Buxoro xalq sovet respublikasidan maxsus vakili V.V.Kuybishev kelib, qizil askarlar oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Uning fikricha, qizil askarlar "o't va qilich" bilan butun sharqiy Buxoro hududida sovet hokimiyatini o'rnatishi lozim edi. Bundan tashqari dushanbega Toshkent va Buxorodan bolsheviklar yuborgan maxsus siyosiy xodimlar - BXSР va Buxoro kommunistik partiyasining favqulodda va muxtor vakillari Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev boshchiligida yetib keldi. Bu kommunistlar qizil armiyaning istiqolchilarga qarshi kurashiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishi lozim edi.

Tutkovul atrofida Ibrohimbek, Davlatmandbek, Tog'ay Sari va Egamberdi o'zlarining 3000 kishilik suvoriylari bilan qizil askarlarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Biroq shiddatli janglardan so'ng 24-fevral kuni kechqurun Davlatmandbek boshchiligidagi 1800 suvoriy Kangurt orqali Baljuvonga jo'nab ketdi, Qo'shinning qolgan qismi esa Ibrohimbek yetakchiligida Ko'lob tomonga qarab yo'l oldi. 1921-yil 25-fevralda Roganov boshchiligidagi 2-otliqlar polki Ko'lobni egalladi[14].

Shu narsa xarakterliki, Hisor ekspeditsiya otryadi bir yilcha mavjud bo'lishiga qaramasdan uning komandirlari tez-tez o'zgarib turgan. Bosqinchi qizil armiyaning bu komandirlari janglarda halok bo'lishgan yoxud yarador qilingan. 1921-yil avgust oyida Eshon Sulton guruhi bilan bo'lgan jangda V.M.Ionov yarador bo'lgach, kombrig (brigada komandiri) Y.A.Melkumov (1885-1962) ekspeditsiyaga komandirlik qila boshlaydi.

Said Olimxon Afg'onistonga o'tgach, o'zi bilan xorijga kelgan saroy amaldorlaridan bir qismini Xonobod va Mozori sharifda qoldirib, eng yaqinlari bilan poytaxt Kobulga jo'naydi. u 1921-yili may oyida Afg'oniston amiri

Omonullaxon iltifotiga binoan Kobul atrofidagi qal'ai Fotu qarorgohida joylashib, yangi tashkil qilingan BXSР hududida qizil armiyaga qarshi olib borilayotgan harbiy amaliyotlarni boshqarishga urinadi. Said Olimxon Buxoro hududida faoliyat olib borayotgan qo'rboshilar bilan aloqani hamda o'zaro ma'lumotlarni asosan tog'asi Qarshining sobiq begi Tog'aybek vositasida amalga oshiradi.

Usmon Xo'ja Qarshida turganligida uzil-kesil bir qarorga kelib, sovetlar bilan aloqasini uzdi va qurolli muxolifat tomoniga o'tdi. 1922-yil 10-aprelda Usmon Xo'ja Afg'onistonga keldi. 29-aprelda Kobulda Afg'oniston amiri Omonullaxon bilan uchrashib, Rossiya qarshi kurash olib borish uchun Buxoro respublikasining davlat boshlig'i sifatida Afg'oniston bilan shartnoma imzoladi[15]. u Buxoro mustaqil milliy armiyasi uchun xorijiy davlatlardan qurol-yarog' sotib olishga harakat qildi. Biroq tadqiqotchilarning yozishicha, inglizlar bilan bo'lgan muzokaralardan biror natija chiqmadi[16]. Usmon Xo'ja keyinchalik Buxoroga qaytmoqchi bo'lganida Fayzulla Xo'jayev unga maktub yuborib, yurtga qaytmaslikni, mabodo u qaytib kelsa bolsheviklar tomonidan otib tashlanishi mumkinligidan ogohlantiradi[17].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Usmon Xo'janing hayotida muhojirlik davri boshlandi. U dastlab Afg'onistonda turib, Anvar posho va boshqa qo'rboshilar bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi. Afg'onistonda turkiy millatga mansub yigitlarni maxsus harbiy tayyorgarlikdan o'tkazib, ularni Turkiston mustaqilligi uchun kurashga tayyorladi. Ayrim manbalarda yozilishicha, 1922-yil dekabr oyining boshlarida Usmon Xo'ja sharqiy Buxorodagi Salim posho qarorgohida bo'lib, Qorateginda qurolli dastalarni tuzishga rahbarlik qilgan[18].

1923-yil iyun oyida Kobulga kelgan Ahmad Zaki Validiy bu yerda Usmon Xo'ja bilan bir necha marta uchrashadi. 26 - 28 iyunda Kobulda Turkiston milliy birligi

(TMB) tashkilotining shoshilinch yig'ilishi o'tkazilib, unda kelgusi rejalar muhokama qilindi. Usmon Xo'ja TMBning Turkiyadagi vakili qilib tayinlangach, 1923-sentabrda u Istanbulga keldi va Turkiya hukumatiga siyosiy boshpana so'rab murojaat qildi. Uni Turkiya respublikasining birinchi prezidenti Mustafо Kamol Otaturk (1881-1938) iliq kutib oldi[19].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 30-mayda Buxoro shahrida "jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga[20] binoan usmon xo'ja yashab o'tgan Buxoro shahridagi tarixiy maskan – Xo'ja gulrez ko'chasi 13-uy manzilida joylashgan Hovlipoyon majmuasida jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil etiladigan bo'ldi. Bu hovli Usmon Xo'janing otasi Po'latxo'ja tomonidan XIX asr 60-yillarida qurilgan bo'lib, bu ota xonadonida Usmon Xo'ja tarbiyalangan hamda o'zining Buxorodagi mashhur jadidlar maktabini ochgan edi. ayni paytda mazkur xonadonni muzeyga moslab qayta ta'mirlash va jihozlash ishlari ketmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Xo'ja taniqli davlat va siyosat arbobi bo'lib, u Buxoro mustaqilligi uchun ruslarga qarshi kurashgan bir vatanparvar edi. Buxorodagi jadidchilik harakatida Usmon Xo'janing o'ziga xos o'rni bo'lgan. Usmon Xo'ja tomonidan Buxoro shahrida tashkil etilgan jadidlar maktabi faoliyati ayniqsa tahsinga sazovordir. uning atrofida ukasi Otaulla Xo'jayev va amakivachchasi Fayzulla Xo'jayev kabi hamkorlar va safdoshlar maslakdosh bo'lib, Turkiston birligi hamda mustaqilligi uchun kurashning oldingi saflarida borishdi. Afsuski, Usmon Xo'janing Buxorodagi faoliyati 1922-yilning boshlarida uzilib qoldi. Usmon Xo'ja davlat tashrifi bilan Afg'onistonga borib, bolsheviklar tazyiqi va siyosiy vaziyat nuqtai nazaridan ortga qaytmasdan Kobul shahrida qolishga majbur bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Ражабов Қ. Туркистон минтақасида совет режимига қарши истиқлолчилик ҳаракати ва моҳияти (1918-1935). – Тошкент: Фан, 2022. – Б.219-222.
2. Ражабов Қ., Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа. – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011. – Б.8.
3. Qarang va taqqoslang: Қ. Ражабов. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1991 й.). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 228-230; “Шарқ юлдузи” (Тошкент). - 2004. - № 1. Б. 30-31.
4. Бу ҳақда қаранг: С.Иноят. Усмон Хўжанинг ҳовлиси// “Жадидларнинг илмий-педагогик мероси: тарих ва замонавийлик” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (29-30 март 2024 йил). 1-тўплам. – Фарғона, 2024. – Б. 354-359.
5. O'zbekiston Milliy arxivi, I-3-fond, 1-ro'yxat, 105-ish, 74-varaq.
6. Файзулла Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар (Қайта нашр). Масъул муҳаррир: Д.Алимова. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 102-106.
7. Timur Kocaoglu. Yenilik Hareketliri ve ihtilaller Arasında Osman Hoca (Kocaoglu) // Türkistanda Yenilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924. - Haarlem, Sota, 2001. S. 26.
8. Türkistanli Abdullah Receb Baysun. Türkistan Milli Hareketleri. - Istanbul, 1975. S. 62-63.
9. Qarang: Усмон Хўжа. Анвар Пошо Бухорода қолса эди... // “Эрк” газетаси (Тошкент). 1992 йил 29 апрел - 5 май.
10. “Бухоро ахбори”, №8, 1920 йил 21 ноябр.
11. O'zbekiston Milliy arxivi, 46-fond, 1-ro'yxat, 38-ish, 4-varaq.
12. История таджикского народа. Том V. Новейшая история (1917-1941 гг.). – Душанбе, 2004. – С.259.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, 46-fond, 2-ro'yxat, 10-ish, 5-varaq.
14. O'zbekiston Milliy arxivi, 48-fond, 1-ro'yxat, 74-ish, 14-varaq.
15. Temur Kocaoglu. Yenilik Hareketleri ve ihtilaller Arasında Osman Hoca (Kocaoglu) // Turkistanda Yerilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924. S. 26-28.
16. Ш.Ҳайитов Усмонхўжа Пулатхўжаев - миллий мустақиллик курашчиси // Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Б. 68-69.
17. Qarang: Қ.Ражабов. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1991 й.). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 223-224.
18. Qarang: O'zbekiston Milliy arxivi, 58-fond, 1-ro'yxat, 84-ish, 28-varaq.
19. Qarang: Қ.Ражабов. Туркистон қўрбошилари. – Тошкент: Фан, 2022. – Б.297-298.
20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори (2024 йил 30 май): Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида // <https://yuz.uz/a/uz/101334>.